


# O'zbek adabiy tanqidchiligi maktabining yetakchi namoyandasи



Nazarov Baxtiyor Aminovich 1945-yil 17-sentyabrida Toshkent shahrida tug'ilgan. 1966-yili Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatib, mehnat faoliyatini maktab o'qituvchiligidan boshlagan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti (hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) aspiranturasida tahsil olgan. 1972-yilda nomzodlik, 1984-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi.

Iste'dodli olim o'zining 55 yillik ilmiy pedagogik va tashkilotchilik faoliyati davomida O'zbekiston entsiklopediyasi tahririysi muharriri, Fanlar akademiyasi Til va adabiyoti instituti kichik, katta ilmiy xodimi, ilmiy kotibi, Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi ilmiy kotibi, bosh ilmiy kotib o'rinnbosari, Til va adabiyot instituti direktori, bo'lim mudiri, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri birinchi o'rinnbosari, Fanlar akademiyasi prezidenti maslahatchisi, umrining oxirigacha O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bosh ilmiy xodimi lavozimlarida samarali mehnat qilib, yurtimizda o'zbek adabiy tanqidchiligining ilmiy asoslarini yaratish sohasidagi chuqur fundamental tadqiqotlarni olib bordi va yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shdi.

Uning XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayonni adabiy tanqidchilik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etgan ilmiy ishlari bugungi o'zbek adabiyotining badiiy saviyasini baholashda o'ziga xos o'rın tutadi.

U 20 ga yaqin monografiya va risolalari, 200 dan ortiq ilmiy maqolalarida XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligining asosiy taraqqiyot tamoyillari tadqiq etilgan. Oliy va o'rta ta'lim tizimi uchun hammulliflikda yaratilgan 10 ga yaqin o'quv qo'llanmalari va darsliklari adabiyotshunoslik sohasidagi bugungi ta'lim tizimining yetakchi namunalari hisoblanadi. Ayniqsa, uning bevosita rahbarligida 2012-yilda

kirill va 2013-yilda lotin yozuvlarida chop etilgan “XX asr o’zbek adabiy tanqidchiligi” darsligi oliy ta’lim tizimi uchun ushbu sohada yaratilgan ilk darslik ekanligi bilan e’tiborga sazovordir.

Jonkuyar ustoz sifatida ko’plab yoshlarga ilm-fan sirlaridan saboq bergen zahmatkash olimning bevosita rahbarligida 10 ta fan doktori va 25 ga yaqin fan nomzodlarini tayyorlagan.

Akademik B.Nazarovning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U O’zbekiston Respublikasi fan arbobi faxriy unvoniga sazovor bo’lgan edi.

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Baxtiyor Nazarovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.